

Yakuniy qism (5 min.).

O'qituvchi mustaqil ish uchun topshiriq beradi va o'quvchilarni 3 guruhga bo'ladi.

So'ngra quyidagi mavzularda hikoya tayyorlashni taklif qiladi:

- 1-guruh – zamonaviy estrada musiqa;
- 2-guruh – O'zbekiston estrada musiqasi;
- 3-guruh – ota-onamning davridagi estrada musiqasi.

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarga qaysi guruhning taqdimoti ko'proq yoqqanligini ko'rsatish uchun qo'llar yordamida "layklar" qo'yishni taklif qiladi.

5 – dars. Baraban

Darsning maqsadi:

- o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashini kengaytirish;
- o'quvchilarda estetik madaniyatni rivojlantirish;
- o'quvchilarning musiqiy asboblarda ijro etishga qiziqishini oshirish.

Ta'lim natijalari:

- o'quvchilarning qo'shiqlarni to'g'ri ijro etish haqidagi tushunchalari kengayadi;
- o'quvchilarning vokal ijodkorlik ko'nikmalari rivojlanadi;
- o'quvchilarda musiqiy asboblarda ijro etishga qiziqish rivojlanadi.

Zaruriy vositalar: darslik, gadjet, shovqinli zarbli asboblari.

Kirish (5 min.).

O'qituvchi o'quvchilarni kutib oladi, davomatni tekshiradi va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.

1. Sizga estrada musiqa yoqadimi va nega?
2. Estrada orkestrining asboblari eslab ko'ring va ularni nomlang.

Nazariy qismi (5 min.).

O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda "Baraban" qo'shig'ini tinglashadi.

Amaliy qism (10 min.).

Eshitib bo'lgandan so'ng o'qituvchi ushbu savollarni berib o'tadi:

1. Kim bu qo'shiqni kuylaydi?
2. Ushbu qo'shiqni tinglaganingizda qanday his-tuyg'ular paydo bo'ldi?
3. Barabanda chalishni o'rganishga ishtiyoq paydo bo'ldimi?

O'quvchilar qo'shiqni yana bir marta tinglab, so'zlariga hamroh bo'lib kuylashadi..

Amaliy qism (15 min.). "Musiqali ansambl" mashg'uloti

Har bir o'quvchi zarbli yoki **shovqinli** (шумовой) musiqa asbobini tanlaydi (buben, doira, marakas, baraban, qo'l, oyoq, barmoq **chertish**). Shundan so'ng, o'qituvchi har bir asbob uchun oddiy ritmni ko'rsatadi, so'ngra hammalari birgalikda "Baraban" qo'shig'iga mos ravishda chalishadi. Qo'shiqning kuyi davomida barcha asboblari bir xil ritmda chaladi.

Yakuniy qism (5 min.).

Mustaqil ish uchun topshiriq. Internet orqali turli xil baraban turlarini toping va o'z so'zlaringiz bilan ularning tavsiflarini va qanday ijro etilishini yozing.

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarga natijalarini baholashni taklif qiladi: agar hammasi yaxshi bajarilgan bo'lsa, baland qarsak chalishadi, agar unchalik yaxshi bo'lmasa, sekin qarsak chalishadi.